

Jizzax viloyati adliya boshqarmasi (adliya bo'limlari bilan birga) tomonidan 2024-yilning 1-choragida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish yuzasidan ma'lumot.

17.04.2024-yil

Jizzax shahri

Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний ва юридик шахсларнинг murojaatlari tўғрисида”ги Қонунини 35-моддасида murojaatларни умумлаштириш ва таҳлил қилиш белгиланган.

Shunga ko'ra, Jizzax viloyati adliya boshqarmasi va uning tizimiga 2024-yilning 1-choragida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi. Tahlil statistik hisobot shakllariga asosan o'tkazildi.

Ushbu davrda jami 1434 ta (130 tasi ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotiga oid, 936 tasi inson huquqlarini himoya qilishga oid, 85 tasi notariat va advokatura faoliyatiga oid, 18 tasi yuridik xizmatlar faoliyatiga oid, 29 tasi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid, 149 tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid hamda 87 ta boshqa sohalarda) ariza va shikoyatlar kelib tushgan.

Yil boshidagi 100 ta qoldiq va kelib tushgan 1434 ta murojaatlardan 1315 tasi (91,7 %) ko'rib chiqilib, 932 tasi (70,8%) qanoatlantirilgan, 2 tasi rad etilgan, 381 tasiga huquqiy tushuntirish berilgan.

Kelib tushgan murojaatlardan 37 tasi adliya bo'limlariga (boshqarmadan), 47 tasi boshqa tashkilotlarga taalluqligi bo'yicha yuborilgan, 10 tasi ko'rmasdan qoldirilgan, 125 tasi hisobot davrida qoldiq bo'lib o'tgan.

Murojaatlar shakli bo'yicha tahlil qilinganda **495** tasi og'zaki, shundan **270** tasi sayyor qabullarda, **588** tasi yozma, **351** tasi elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni tashkil qiladi.

Shuningdek, murojaatlarning **842** tasi shikoyat, **592** tasi arizalarni tashkil etadi.

Kelib tushgan murojaatlarni **200** ga yaqini joyiga chiqqan holda, **118** tasini ko'rib chiqishda mutaxassislar jalb qilingan holda, **300** ga yaqini bevosita murojaat etgan fuqarolar ishtirokida ko'rib chiqilgan.

Murojaatlarнинг хусусияти бўйича таҳлил қилинганда **204** tasi mehnat nizolari, shundan, **102** tasi oylik ish haqini olish masalasida, **36** tasi ta'limga, **71** tasi ijtimoiy himoyaga, **60** tasi uy-joyga, **34** tasi kommunal to'lovlarga, **12** tasi soliq sohasiga, **26** tasi yerga, **16** tasi banklar faoliyatiga, **55** tasi notariatga, **19** tasi advokaturaga, **42** tasi davlat xizmatlarini ko'rsatishga, **3** tasi nodavlat notijorat va diniy tashkilotlar faoliyatiga doir qonun hujjatlari yuzasidan, **13** tasi sud qarorlari

yuzasidan, **1** tasi ichki ishlar organlari faoliyatiga doir, **23** tasi adliya organi xodimlari xatti-harakatlari yuzasidan, **198** tasi qonun hujjatlariga tushuntirish berishga hamda **621** tasi boshqa masalalar oid murojaatlar.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijasida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish qilish, fuqaro va yuridik shaxslarni buzilgan huquqlarni tiklash yuzasidan tegishli idoralarga jami, 276 ta ta’sir choralari kiritildi.

Xususan, 112 ta taqdimnoma, 3 ta ogohnoma, sudlarga 101 ta da’vo arizalari (ariza), 59 ta ma’muriy va 1 ta jinoiy takliflar kiritildi.

Kiritilgan ta’sir choralariga asosan 24 nafar shaxslar intizomiy, 37 nafar shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortildi hamda 475 ta hujjatlar bekor qilindi, 16 148 071 686 so‘m pul mablag‘lari undirildi.

Мурожаатларда тез-тез кўтарилган масалалар таҳлил қилинганда меҳнат низолари, шу жумладан, ойлик иш ҳақини олиш, таълим, ижтимоий, ерга оид ҳамда давлат хизматларини кўрсатиш соҳасига оид мурожаатлар кўплиги аниқланиб, ушбу йўналишлар юзасидан тегишли ташкилот ва идоралар ўртасида тушунтириш ишларини олиб бориш белгилаб олинди.

**Режалаштириш ва
назорат-таҳлил шўбаси**

17.04.2024-йил